



## O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING STATISTIK KO'RSATKICHLARI AXBOROT BAZASINING IQTISODIY SAMADORLIKKA TA'SIRI

*PhD Nazarov Nazar*

*Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti*

*ORCID: 0009-0007-2599-8769*

*[nazarbek.2728@gmail.com](mailto:nazarbek.2728@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik biznes faoliyati statistik ko'rsatkichlarining axborot bazasi ahamiyati hamda uning mamlakat iqtisodiyoti ham iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, axborotlar bazasining samadorligining asosiy jihatlari tahlil etilgan hamda kichik biznesda axborotlar bazasining iqtisodiy samadorligi SWOT tahlili keltirilgan. Tadqiqot natijasidan O'zbekistondagi kichik biznes subyektlari faoliyati samadorligini baholashda hamda kichik bizneslar faoliyatini samarali tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, axborotlar bazasi, iqtisodiy samaradorlik, statistik ko'rsatkich.

## ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СТАТИСТИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ МАЛОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ

*PhD Назаров Назар*

*Институт повышения квалификации и статистических исследований*

**Аннотация.** В данной статье исследуется важность информационной базы статистических показателей деятельности малого бизнеса в Узбекистане, а также ее значение в отраслях экономики страны. Также проанализированы основные аспекты эффективности информационной базы и представлен SWOT-анализ экономической эффективности информационной базы в малом бизнесе. Результаты исследования могут быть использованы для оценки эффективности деятельности субъектов малого предпринимательства в Узбекистане и для эффективной организации деятельности малого бизнеса.

**Ключевые слова:** малый бизнес, информационная база, экономическая эффективность, статистический показатель.

## THE IMPACT OF THE INFORMATION BASE ON ECONOMIC EFFICIENCY OF THE STATISTICAL INDICATORS OF SMALL BUSINESS IN UZBEKISTAN

*PhD Nazarov Nazar*

*Institute for Human Resource Development and Statistical Research*

**Abstract.** This article explores the importance of the information base of statistical indicators of small business activity in Uzbekistan, as well as its importance in the sectors of the economy of the country. Also, the main aspects of the efficiency of the information base are analyzed, and the economic efficiency of the information base in small business is the SWOT analysis. The results of the study can be used to assess the efficiency of the activities of small business entities in Uzbekistan and to effectively organize the activities of small businesses.

**Keywords:** small business, information base, economic efficiency, statistical indicator.

### **Kirish.**

Bugungi kunda kichik biznes mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallab, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar kichik biznes subyektlarining faolligini oshirib, ularning iqtisodiy tarmoqlardagi ishtirokini kengaytirmoqda. Kichik biznesning salohiyatini to'g'ri baholash va uning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish uchun statistik ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va yangilash dolzarb masalaga aylangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyevning 2025-yil, 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-50-son farmonida mamlakatda kichik biznesning iqtisodiy samadorligini baholash tizimini yaratish, tadbirkorlar uchun yagona axborot elektron bazani yaratish va bu orqali kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan holda ular faoliyatini kengaytirish orqali o'rta va yirik biznesga aylantirish kerakligi belgilangan (Farmon, 2025). Bugungi texnika-texnologiya rivojlangan davrda butun dunyoda elektron biznes, online xaridlarlarning biznesdagi o'rni ortib borayotgan bir paytda, kichik biznesning iqtisodiy samadorligini oshirish uchun axborot-elektron bazalarni shakllantirish muhim hisoblanadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Kichik biznes faoliyatining iqtisodiy samadorligi va unga ta'sir etuvchi omillar, kichik biznesning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risida bir qancha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqot olib borganlar.

Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlardan Jimi va Nikolovlar (2020) o'z tadqiqotlarida mikro korxonalarga kreditga kirish imkoniyatining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini o'rgangan. Tadqiqotda kreditga kirishning texnologik o'zgarishlar va texnik samaradorlikka ta'siri statistik tahlil qilingan.

Lee hamda Nagy (2022) tadqiqotida Janubiy Koreyaning O'zbekiston va boshqa MDH mamlakatlaridagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarining motivatsiyalari va joylashuv omillari o'rganganlar hamda investitsiyalarning kichik biznesning iqtisodiy samaradorligiga ta'siri statistik tahlil qilingan.

Shuningdek, mahalliy iqtisodchi olimlardan Ergashov va Komiljonovning (2024) tadqiqotlarida kichik biznesga ta'sir qiluvchi omillarni statistik tahlil qilingan. hamda omillarni guruhlariga ajratish va dastlabki statistik tekshiruvlar olib borishning ahamiyati muhokama qilingan. Natijada, kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini baholashda axborot bazalarining rolini o'rganishga muayyan darajada asos bo'lgan.

Xolmirzayev (2025) tadqiqotida hududiy rivojlanishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni statistik baholangan hamda iqtisodiy-statistik tahlil usullari yordamida kichik biznesning iqtisodiy samaradorligi o'rganilgan.

Shodiyeva (2024) tadqiqotida raqamli iqtisodiyotning kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikka ta'siri o'rganilgan. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning aholi turmush darajasiga ta'siri statistik tahlil qilingan.

Bugungi kunda kichik biznesning samarali faoliyat olib borishida aniq hamda ishonchli axborotlarning o'rni ortayotganligi sababli, ushbu yo'nalishda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish, axborotlar bazasi platformalari hamda kichik biznes faoliyati integratsiyasi samadorligini baholash orqali har tomonlama raqobatbardosh bizneslarni tashkil etish muhim hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda qiyosiy-tahlil, SWOT analiz tahlili, o'rta statistik usullar hamda iqtisodiy samaradorlikni baholashning boshqa usullaridan foydalanilgan. Maqolada O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Statistik ko'rsatkichlar tizimi orqali kichik biznes subyektlarining soni, faoliyat turlari, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, xizmatlar ko'lami, ish bilan band aholining ulushi, soliq to'lovlari va investitsion faolligi kabi asosiy jihatlar tahlil qilinadi. Ushbu ma'lumotlar esa maxsus axborotlar bazasida jamlanadi va davlat boshqaruvi, iqtisodiy siyosat yuritish hamda ilmiy tadqiqotlar uchun asosiy manba vazifasini bajaradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida bu ma'lumotlar real vaqt rejimida yig'ilib, tahlil qilinmoqda, bu esa qaror qabul qilish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar hajmi 719,5 trillion so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich YaIMdagi ulushi jihatidan 56,5 foizga teng bo'ldi. Shuningdek, kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan ish o'rinlari umumiy bandlikning 75,4 foizini tashkil etdi, bu esa ularning iqtisodiy faollikdagi o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi [7].

Kichik biznes – iqtisodiyotning eng harakatchan va moslashuvchan qismlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy barqarorlik, bandlik, innovatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu sohaning rivojlanish sur'atlarini baholash, salohiyatini aniqlash hamda davlat siyosatini shakllantirish uchun tizimli statistik ma'lumotlar to'plami va zamonaviy axborotlar bazasi muhim ahamiyat kasb etadi.

|                                            |                                                                                                                                       |
|--------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Struktura va son jihatdan ko'rsatkichlar   | •faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni, ularning mulkchilik shakllari, faoliyat yo'nalishlari va geografik joylashuvi. |
| Moliyaviy ko'rsatkichlar                   | •yalpi daromad, sof foyda, asosiy vositalarga investitsiyalar, soliq tushumlari.                                                      |
| Mehnat bozori bilan bog'liq ko'rsatkichlar | •ish bilan bandlar soni, ish haqining o'rtacha miqdori, yangi yaratilgan ish o'rinlari.                                               |
| Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish      | •ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, ko'rsatilgan xizmatlar miqdori, eksport-import ko'rsatkichlari.                                |
| Innovatsion va texnologik ko'rsatkichlar   | •yangi texnologiyalarning joriy etilishi, ilmiy ishlanmalarning amaliyotga tatbiq qilinishi.                                          |

**1-rasm. Kichik biznes faoliyatini ifodalovchi asosiy statistik ko'rsatkichlarning guruhlanishi**

Ushbu ko'rsatkichlar yillik, choraklik yoki oylik kesimda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan rasmiy statistik hisobotlar orqali e'lon qilinadi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida statistik ma'lumotlarni faqat qog'oz shaklida yig'ish samarasiz bo'lib qoldi. Shu sababli, O'zbekistonda kichik biznes subyektlariga oid axborotlar bazasi raqamlashtirilgan, markazlashgan va real vaqt rejimida yangilanadigan tizim sifatida shakllantirilmoqda.

Axborot bazasi (AB) – bu muayyan sohaga oid ma'lumotlarning elektron shaklda tizimli tarzda to'plangan, saqlangan, boshqariladigan va foydalanuvchilar tomonidan turli

maqsadlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar yig'indisidir. Texnik jihatdan, axborot bazasi kompyuter tizimida yaratilgan va maxsus dasturiy vositalar yordamida boshqariladigan elektron muhitdir. Bu baza ma'lumotlarning mantiqiy bog'liqligini ta'minlaydi, ularni tezkor qidirish, saralash, tahlil qilish, yangilash va eksport qilish imkonini beradi.

Axborot bazalari o'zining hajmi, tuzilmasi va ishlash mexanizmi bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun, oddiy elektron jadvallardan tortib, murakkab ko'p darajali va tarmoqli ma'lumotlar bazalarigacha – barchasi axborot bazasi doirasida mavjud. Statistik axborot bazalari esa iqtisodiy, demografik, ijtimoiy va sanoat sohalaridagi ko'rsatkichlarni tizimli tarzda jamlab, foydalanuvchilar uchun analitik qulayliklar yaratadi.

Axborotlar bazasining amaliy samaradorligini nafaqat texnologik jihatdan, balki strategik boshqaruv nuqtayi nazaridan baholash talab etiladi. Shu bois SWOT tahlili ushbu jarayon uchun muhim vosita hisoblanadi. U orqali mavjud imkoniyatlar to'liq aniqlanib, mavjud cheklovlar ustida ishlash, xavflarni bartaraf etish va resurslardan samarali foydalanish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, kichik biznes faoliyatini aks ettiruvchi statistik tizimlarda bu yondashuv aniq, izchil va uzoq muddatli islohotlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

1-jadval

## Kichik biznesda statistik axborotlar bazasi samaradorligining SWOT tahlili

| Kuchli tomonlar (Strengths)                                                                                                  | Zaif tomonlar (Weaknesses)                                                                                                    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Markazlashgan tizim</b> – barcha ma'lumotlar yagona platformaga jamlangan, takroriylik yo'q.                              | <b>Texnik resurslarga bog'liqlik</b> – ayrim hududlarda internet infratuzilmasi yetarli emas.                                 |
| <b>Real vaqt tahlili</b> – statistik ko'rsatkichlar onlayn kuzatiladi, tezkor monitoring imkoniyati mavjud.                  | <b>Foydalanuvchi malakasi pastligi</b> – kichik biznes egalari orasida raqamli savodxonlik yetarli emas.                      |
| <b>Ochiqlik va shaffoflik</b> – ochiq ma'lumotlar platformasi orqali barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiqlik ta'minlanadi. | <b>Axborot xavfsizligi xavflari</b> – maxfiy ma'lumotlar himoyasi hali to'liq kafolatlanmagan.                                |
| <b>Integratsiyalashgan yondashuv</b> – soliq, statistika, litsenziyalash tizimlari o'zaro bog'langan.                        | <b>Dasturiy interfeysning qulay emasligi</b> – ayrim foydalanuvchilar uchun murakkab foydalanuvchi interfeysi.                |
| Imkoniyatlar (Opportunities)                                                                                                 | Xavf va tahdidlar (Threats)                                                                                                   |
| <b>Sun'iy intellekt integratsiyasi</b> – prognozlash va tavsiyalar berish imkoniyatlarini kengaytiradi.                      | <b>Kiberhujumlar xavfi</b> – axborotlar bazasiga nisbatan zararli tashqi hujumlar ehtimoli mavjud.                            |
| <b>Mobil ilova orqali kirish</b> – kichik biznes egalari uchun foydalanishni soddalashtirish mumkin.                         | <b>Qonunchilikdagi o'zgarishlar</b> – axborot bazasining huquqiy asoslari doimiy yangilanib turmasligi.                       |
| <b>Hududiy ko'lamni kengaytirish</b> – chekka hududlardagi subyektlarni to'liq qamrab olish imkoniyati.                      | <b>Ma'lumotlar sifati ustidan nazoratning zaiflashuvi</b> – noto'g'ri yoki eski ma'lumotlar tizimni ishdan chiqarishi mumkin. |
| <b>Ilmiy-tadqiqot bilan integratsiya</b> – akademik tahlillar uchun kuchli platforma bo'lishi mumkin.                        | <b>Moliyalashtirish yetishmovchiligi</b> – tizimni doimiy rivojlantirish uchun yetarli budjet ajratilmasligi.                 |

Kichik biznes faoliyatini ifodalovchi statistik axborotlar bazasi samaradorligini SWOT tahlili orqali baholash natijasida aniqlanishicha, tizimning kuchli jihatlari – markazlashganlik, real vaqt monitoringi va ochiqligi uni strategik boshqaruvda muhim vositaga aylantirmoqda. Shu bilan birga, texnik infratuzilma, foydalanuvchilarning raqamli savodxonligi va axborot xavfsizligi bo'yicha zaifliklar mavjud. Tashqi imkoniyatlar, xususan sun'iy intellekt integratsiyasi, mobil ilovalar va ilmiy-tadqiqot bilan hamkorlik tizimni yanada rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi. Tahdidlar esa kiberxavfsizlik, qonunchilikdagi o'zgarishlar va moliyaviy

cheklovlar bilan bog'liq. Shu bois, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, zaif tomonlarni kuchaytirish va xavflarni minimallashtirish ustuvor strategik yo'nalish bo'lishi zarur.

Kichik biznesning real ahvolini tahlil qilish, uning rivojlanish sur'atlarini kuzatish va samarali qarorlar qabul qilish uchun statistik ko'rsatkichlar bilan ishlash muhimdir. Bunday statistik ma'lumotlar aniq, ishonchli va tizimli bo'lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, axborot bazasi kichik biznes sohasi faoliyatini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimining yuragi hisoblanadi.

Axborot bazasining ahamiyatini quyidagi jihatlar orqali ko'rish mumkin:

1. Ma'lumotlarning markazlashuvi va tizimlashtirilganligi. Kichik biznes subyektlariga oid barcha statistik ko'rsatkichlar yagona platformaga – axborotlar bazasiga jamlangani sababli, turli idoralar va foydalanuvchilar uchun ularni topish, solishtirish va tahlil qilish imkoniyati oshadi. Masalan, Statistika agentligi, Soliq qo'mitasi, Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari va banklar turli ma'lumotlarni yagona platformada baham ko'radi.

2. Tahlil qilish va prognoz qilish imkoniyati. Axborot bazasi yordamida kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatkichlari – ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar spektri, ishchilar soni, soliq tushumlari kabi ko'rsatkichlar yillik, choraklik, hatto oylik darajada tahlil qilinadi. Bu esa hukumatga va tadbirkorlik muhitiga oid muhim qarorlar qabul qilishda asos bo'ladi. Masalan, qaysi hududda kichik biznes sust rivojlanayotganini ko'rib, qo'shimcha imtiyozlar rejalashtiriladi.

3. Real vaqt rejimidagi monitoring. Axborot bazasining zamonaviy shakli real vaqt rejimida ishlaydi. Masalan, Yagona elektron statistik hisobotlar tizimi orqali kichik biznes subyektlari faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'zlari kiritadilar. Bu esa tezkor monitoring qilish va tahlil qilish imkonini beradi. Davlat organlari sohadagi o'zgarishlarni vaqtida ko'rib chiqib, kerakli choralarini belgilaydi[8].

4. Qaror qabul qilishda ishonchli asos. Kichik biznesni rivojlantirish dasturlari, kredit-subsidiya ajratish mexanizmlari, soliq siyosati yoki imtiyozlar aniqlanishida axborot bazalarida jamlangan statistik ma'lumotlar muhim rol o'ynaydi. Ular asosida sektorlar kesimida eng faol yoki sust hududlar aniqlanadi.

5. Tadqiqot va ilmiy ishlanmalar uchun asosiy manba. Ilmiy-tadqiqot institutlari, magistr va doktorantlar kichik biznesga oid statistik tahlil ishlari uchun aynan ushbu axborot bazalariga tayanadi. Bu esa fan va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlab, yangi yechimlar ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

6. Shaffoflik va hisobot beruvchanlikni ta'minlash. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining raqamli monitoringi ularning davlat oldidagi shaffofligini oshiradi. Bu esa korrupsion holatlarni kamaytirishga, soliq bazasini kengaytirishga va adolatli raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Axborot bazasi – bu nafaqat statistik ko'rsatkichlar ombori, balki strategik boshqaruv, siyosiy qarorlar, moliyaviy rejalashtirish va ilmiy izlanishlar uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, kichik biznes sohasida ishonchli va real ma'lumotlarning mavjudligi sektorning barqaror rivojlanishi, adolatli resurs taqsimoti va samarali davlat yordamini tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, axborot bazalarini yangilash, ularni integratsiyalash va sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirish zamonaviy iqtisodiyot talabidir.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida statistik ma'lumotlarni faqat qog'oz shaklida yig'ish samarasiz bo'lib qoldi. Shu sababli, O'zbekistonda kichik biznes subyektlariga oid axborotlar bazasi raqamlashtirilgan, markazlashgan va real vaqt rejimida yangilanadigan tizim sifatida shakllantirilmoqda. Bunday bazalar quyidagi yo'nalishlarda ishlaydi:


– Davlat statistika portal (www.stat.uz) – barcha tarmoq va hududlar kesimida ochiq statistik ma'lumotlar taqdim etiladi;

– Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal (my.gov.uz) – tadbirkorlik subyektlari ro'yxatga olinishi, litsenziyalar, soliq to'lovlari va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar integratsiyalashgan;



- Soliq qo‘mitasi va banklar ma‘lumot bazalari – moliyaviy ko‘rsatkichlar, kreditlar, to‘lovlar, subsidiyalar;
- Yagona elektron statistik hisobot tizimi – subyektlar o‘z faoliyati to‘g‘risida elektron shaklda hisobotlar topshiradi.

Bu bazalar orqali katta hajmdagi statistik ma‘lumotlar yig‘iladi, tahlil qilinadi va turli foydalanuvchilarga – davlat idoralari, tadqiqotchilar, investorlar va jamoatchilikka taqdim etiladi. Sun‘iy intellekt asosidagi tahlil mexanizmlari esa bu ko‘rsatkichlar asosida real vaqtli prognozlar va qarorlarni ishlab chiqishga yordam bermoqda.



## 2-rasm. Axborot bazasi samaradorligining asosiy jihatlari

Axborotlar bazasi bugungi raqamli iqtisodiyotning ajralmas infratuzilmasi hisoblanadi. Ayniqsa, kichik biznes sektorini rivojlantirish, monitoring qilish va samarali boshqarish uchun axborotlar bazasi yuqori darajadagi funksional qulaylik, tahliliy imkoniyat va boshqaruv samaradorligini ta‘minlaydi. Mazkur tizim orqali yig‘iladigan va tahlil qilinadigan ma‘lumotlar turli darajadagi foydalanuvchilar - davlat boshqaruvi organlari, tadbirkorlar, investorlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Axborot bazasining samaradorligi quyidagi asosiy jihatlari orqali namoyon bo‘ladi:

1. Ma‘lumotlarning tezkorligi va aniqligi. Axborotlar bazasi orqali statistik ma‘lumotlarni yig‘ish jarayoni avtomatlashtirilgan bo‘lib, inson aralashuvi minimal darajada bo‘ladi. Bu esa birinchi navbatda ma‘lumotlarning aniqligi, ishonchliligi va xatolardan xoli bo‘lishini ta‘minlaydi. Misol uchun, kichik biznes subyektlari o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni elektron shaklda bevosita yagona tizimga topshirishadi, bu esa qog‘ozbozlik va oraliq mexanizmlarni yo‘q qiladi [9].

2. Qaror qabul qilishda analitik quvvat. Yaxshi tashkil etilgan axborot bazasi nafaqat raqamlarni saqlaydi, balki ularni strukturaviy tahlil qilish, solishtirish, dinamikasini ko‘rish va prognozlar chiqarish imkonini beradi. Masalan, qaysi hududda kichik biznes tezroq rivojlanayotganini yoki qayerda sustlik kuzatilayotganini aniqlash orqali davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari aniqlashtiriladi. Shu bilan birga, sektorlar kesimida (sanoat, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi va h.k.) kichik biznesning o‘sish sur‘atlari tahlil qilinadi va har bir yo‘nalish uchun alohida siyosiy yondashuvlar ishlab chiqiladi.

3. Resurslar taqsimotining oqilonaligi. Axborot bazasida jamlangan statistik ma‘lumotlar orqali soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kreditlar va boshqa resurslarni adolatli va maqsadli taqsimlash imkoni paydo bo‘ladi. Har bir kichik biznes subyekti faoliyatiga oid real ma‘lumotlar

mavjud bo'lgani sababli, resurslar eng muhtoj va istiqbolli subyektlarga yo'naltiriladi. Bu esa davlat resurslarining samarasiz sarflanishining oldini oladi.

4. **Nazorat va shaffoflikni ta'minlash.** Axborotlar bazasi kichik biznes subyektlari ustidan doimiy, lekin ortiqcha byurokratiyasiz nazorat mexanizmini yaratadi. Elektron hisobotlar, moliyaviy ko'rsatkichlar, soliq to'lovlari kabi ma'lumotlar bir tizimda jamlangani tufayli ularni monitoring qilish va solishtirish osonlashadi. Bu esa korrupsion holatlarni kamaytiradi, raqobatbardosh muhitni shakllantiradi va biznes muhiti shaffofligini oshiradi.

5. **Vaqt va xarajat tejallishi.** Ma'lumotlarni qog'ozda yig'ish, ularni qo'lda kiritish va qayta ishlash katta mehnat va vaqt talab etadi. Raqamlashtirilgan axborot bazasi orqali esa bu jarayonlar avtomatlashtiriladi. Tadbirkor o'z ofisidan chiqmasdan hisobotlarni topshirishi, kerakli statistik ma'lumotlarni yuklab olishi yoki kerakli tahlillarni shakllantirishi mumkin. Bu esa nafaqat foydalanuvchi, balki davlat tizimi uchun ham operatsion xarajatlarni keskin kamaytiradi.

6. **Ochiqlik va ommaviy foydalanish imkoniyati.** Ko'pgina statistik axborot bazalari bugungi kunda ochiq ma'lumotlar shaklida taqdim etilmoqda. Masalan, [www.stat.uz](http://www.stat.uz), [data.egov.uz](http://data.egov.uz) va boshqa platformalar orqali foydalanuvchilar istalgan soha, hudud yoki ko'rsatkich bo'yicha kerakli statistik ma'lumotlarga bemalol ega bo'lishlari mumkin. Bu esa jurnalistlar, tadqiqotchilar, talabalar, investitsiya muassasalari va jamoatchilik uchun katta imkoniyat yaratadi.

7. **Ilmiy va innovatsion tadqiqotlar uchun tayanch baza.** Kichik biznesga oid yirik statistik ma'lumotlar bazasi innovatsion iqtisodiy tadqiqotlar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, regressiya modellari, prognozlash uslublari, sektorlararo tahlillar va makroiqtisodiy simulyatsiyalar aynan mana shu statistik bazaga asoslanadi. Natijada ilm-fan va amaliyot o'rtasida uzviy bog'liqlik yaratiladi.

8. **Bozor ishtirokchilarining raqobatbardoshligini oshirish.** Tadbirkorlar axborot bazasidan foydalanish orqali bozordagi umumiy vaziyat, narxlar dinamikasi, talab va taklif balansi haqida tasavvurga ega bo'lishadi. Bu esa ularga tezkor strategik qarorlar qabul qilish, yangi mahsulotlar ishlab chiqish, xizmatlarni diversifikatsiya qilish yoki eksport imkoniyatlarini aniqlashda yordam beradi. Ma'lumotga asoslangan boshqaruv yondashuvi – bu zamonaviy bozor talabining asosi hisoblanadi.

Axborotlar bazasining samaradorligi – bu faqat texnologik yutuq emas, balki iqtisodiy boshqaruv madaniyatining yangi bosqichi hisoblanadi. Ayniqsa, kichik biznes sektori kabi tez o'zgaruvchan va ko'p tarmoqli sohalarda axborotlar bazasi orqali qarorlar qabul qilish, rivojlanishni tahlil qilish va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyati davlat va jamiyat uchun beqiyos foyda keltiradi. Shu sababli, mavjud axborot bazalarini doimiy ravishda yangilash, ularni integratsiyalash va foydalanuvchilarga yanada qulayroq qilish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Raqamli statistika bazalari yordamida quyidagi natijalarga erishilmoqda:

- ma'lumotlar yig'ish jarayoni soddalashti va tezlashdi;
- hisobotlarda inson xatosi kamaydi;
- tahliliy vositalar orqali qaror qabul qilish ishonchliroq bo'ldi;
- kichik biznes subyektlari uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari aniqlik kasb etdi [10].

Kelgusida bu bazalarni sun'iy intellekt texnologiyalari, GIS (geografik axborot tizimlari) va blokcheyn asosida rivojlantirish rejalashtirilgan bo'lib, bu orqali kichik biznesning yanada aniq, shaffof va tahliliy monitoringini amalga oshirish imkoniyati kengayadi.

Axborotlar bazasining kichik biznes sohasi faoliyatini boshqarishdagi o'rni yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq har qanday tizim singari, axborotlar bazasi ham o'zining kuchli va zaif tomonlariga, shuningdek, tashqi muhitdan kelib chiqadigan imkoniyatlar va xavflarga ega. Shu bois, mazkur tizim samaradorligini har tomonlama tahlil qilish va yanada takomillashtirish yo'llarini aniqlashda SWOT tahlili dolzarb metod hisoblanadi.

SWOT tahlili — bu tashkilot yoki tizimning Strengths (kuchli tomonlar), Weaknesses (zaif tomonlar), Opportunities (imkoniyatlar), Threats (xavf-xatarlar) bo'yicha to'liq tahlilini o'z ichiga oluvchi strategik tahlil vositasidir. Ushbu metod orqali mavjud axborotlar bazasining afzalliklarini aniqlab, zaif jihatlarini kamaytirish, tashqi imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish hamda xavf-xatarlarni oldindan aniqlab, ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

SWOT tahlilining axborotlar bazasi uchun zaruriyati quyidagicha asoslanadi:

1. Tizimli yondashuvni ta'minlaydi. SWOT tahlili orqali axborot bazasining texnik, tashkiliy, huquqiy va foydalanuvchi bilan bog'liq jihatlari kompleks tarzda baholanadi. Bu esa tizimga bir yoqlama emas, balki ko'p qirrali yondashish imkonini beradi.

2. Stratejik qarorlar uchun asos yaratadi. Kuchli va zaif tomonlar, tashqi imkoniyatlar va xavf-xatarlar aniqlangach, axborot bazasini rivojlantirish, yangilash yoki integratsiyalash bo'yicha aniq strategik rejalar tuziladi.

3. Resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Zaif tomonlar aniqlangach, resurslar aynan o'sha yo'nalishga yo'naltiriladi, bu esa ortiqcha xarajatlarning oldini oladi. Masalan, foydalanuvchi interfeysi murakkab bo'lsa, dasturchilar e'tiborini aynan shu muammoga qaratish lozim bo'ladi.

4. Innovatsion imkoniyatlarni ko'rsatadi. Tashqi imkoniyatlar tahlili orqali yangi texnologiyalarni joriy etish (masalan, sun'iy intellekt, blokcheyn, real vaqt monitoring tizimi) uchun imkoniyatlar ochiladi. Bu esa tizimni zamonaviy talablarga moslashtirishga xizmat qiladi.

5. Xavf-xatarlarni bashorat qiladi. Ma'lumotlar xavfsizligi, texnik uzilishlar, foydalanuvchilarning texnologiyaga nisbatan ishonchsizligi, yoki qonunchilikdagi o'zgarishlar kabi salbiy omillar SWOT tahlili orqali oldindan aniqlanadi va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha choralar ko'riladi.

6. Tashkiliy islohotlarni yo'naltiradi. Axborot bazasini yurituvchi tashkilotlar uchun SWOT tahlili ularning tashkiliy tuzilmasini, mas'uliyat taqsimotini va ichki boshqaruv mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishga yordam beradi.

7. Ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Tahlil natijasida axborotlar bazasi foydalanuvchilar ehtiyojlariga moslashtirilsa, bu nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki davlat xizmatlarining shaffofligi, ishonchliligi va fuqarolar orasida qoniqish darajasini ham yuqori ko'taradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Statistik ko'rsatkichlar tizimi va axborot bazasi bir-biri bilan uzviy bog'langan. Statistik ko'rsatkichlar – bu iqtisodiy faoliyatning natijalarini ifodalaydigan raqamli ifodalar bo'lsa, axborot bazasi – ushbu raqamlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va taqdim etish vositasidir. Ular birgalikda quyidagicha ishlaydi:

Har bir kichik biznes subyekti faoliyati haqida ma'lumot axborot bazasiga real vaqt rejimida elektron shaklda kiritiladi.

Ma'lumotlar to'plangach, ular statistik ko'rsatkichlarga aylantiriladi (masalan, "1000 ta YATT tomonidan xizmat ko'rsatish sohasida ishlatilgan mablag' miqdori").

Shu ma'lumotlar asosida makroiqtisodiy tahlillar olib boriladi, prognozlar tuziladi va iqtisodiy siyosat shakllanadi.

Axborot bazasi bu ko'rsatkichlarni qulay formatda taqdim etib, davlat, xususiy sektor va ilmiy muassasalar uchun ochiq statistik resurs bo'lib xizmat qiladi.

Demak, kichik biznes faoliyatini chuqur va aniq baholash uchun bir vaqtning o'zida kuchli statistik ko'rsatkichlar tizimi va raqamli axborotlar bazasiga ega bo'lish zarur. Statistik ko'rsatkichlar orqali soha tahlil qilinsa, axborotlar bazasi bu ma'lumotlarni saqlash, uzatish va ishlov berishni ta'minlaydi. Ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik esa iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshiradi va maqsadli siyosat yuritish imkonini yaratadi.



Kichik biznes har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun asosiy tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishi nafaqat bandlikni oshiradi, balki innovatsiyalar, xizmatlar sifati va hududiy iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida maydonga chiqadi. Shu bois, kichik biznesning real holatini tahlil qilish, uning dinamikasini kuzatib borish va strategik boshqaruvni ta'minlash uchun aniq statistik ko'rsatkichlar tizimi va zamonaviy axborotlar bazasi zarurdir.

#### **Adabiyotlar/Lumepamypa/References:**

Agentlik (2024) O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, "O'zbekiston iqtisodiyoti 2024-yil yanvar-dekabr", [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

Ergashov S., Komiljonov B. (2024). Kichik biznesga ta'sir qiladigan omillarning statistik tahlili. Iqtisodiy tahlil va tadqiqotlar jurnali, 1(2024). [www.itijournal.uz/2024/01/ergashov-komiljonov](http://www.itijournal.uz/2024/01/ergashov-komiljonov)

Furqatbek X. (2025). Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili. Hududiy iqtisodiyot jurnali, 2(2025). [www.hududiyiqtisod.uz/2025/02/furqatbek](http://www.hududiyiqtisod.uz/2025/02/furqatbek)

Gulnora S. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik aholi turmush darajasini oshirishning bir faktori sifatida. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 3(2024). [www.iqtisodinnovatsiya.uz/2024/03/shodiyeva](http://www.iqtisodinnovatsiya.uz/2024/03/shodiyeva)

Han-Sol L., Sergey U. C., Szabolcs N. (2022). Motivations and locational factors of FDI in CIS countries: Empirical evidence from South Korean FDI in Kazakhstan, Russia, and Uzbekistan. *Emerging Markets Review*, 50, Article 100850. <https://doi.org/10.1016/j.ememar.2021.100850>

Mirziyoyev Sh.M. (2025) "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-50-son, 2025-yil, 19-mart.

Nazar, PhD Nazarov. (n.d.) "STATISTICAL RESEARCH METHODS OF BUSINESS ENTITIES IN FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN."

NAZAROV, N. (2021). Analysis of business entities with the development of innovative and investment activities of entrepreneurship in free economic zones. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (10), 719-727.

Nusrat A. Jimi, et al. (2020). The Effects of Access to Credit on Productivity Among Microenterprises. *Journal of Productivity Analysis*, 54(1), 45-63. <https://doi.org/10.1007/s11123-020-00520-7>

Назар, Назаров. (2021). "THE ROLE OF FREE ECONOMIC ZONES IN DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN UZBEKISTAN." *ЖУРНАЛ ИННОВАЦИИ В ЭКОНОМИКЕ* 4.6.